



UDK: 1(5).(091)

Iqboloy FAYZULLAYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti, PhD
E-mail: fayzullayevaiqboloy94@gmail.com

F.f.d., prof. J.Ramatov taqrizi asosida

ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В СТРАНАХ ВОСТОКА

Аннотация

В данной статье изложены основные научные взгляды, связанные с исторической эволюцией (этапами развития) понятий совершенный человек и гармоничная личность. Этапы развития понятия совершенного человека периодизированы, а также предпринята попытка их сравнения с подходами западных стран.

Ключевые слова: Совершенный человек, гармоничная личность, западные государства, развитие, гуманитарные науки, эпоха Возрождения, суфизм, религиозные взгляды, демократические идеи.

THE HISTORICAL EVOLUTION OF THE CONCEPT OF THE PERFECT HUMAN IN EASTERN COUNTRIES

Annotation

This article presents the main scientific views related to the historical evolution (stages of development) of the concepts of the perfect human being and the harmonious personality. The stages of development of the concept of a perfect person have been periodized and compared with the perspectives of Western countries.

Key words: Perfect human, harmonious personality, Western countries, development, humanities, Renaissance, Sufism, religious beliefs, democratic ideas.

SHARQ MALAKATLARIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASINING TARIXIY TADRIJI

Annotatsiya

Ushbu maqolada komil inson, barkamol shaxs tushunchalarining tarixiy tadriji(rivojlanish bosqichlari) bilan bog'liq asosiy ilmiy qarashlar bayon etilgan. Komil inson tushunchasining rivojlanish bosqichlari davrlashtirilgan hamda G'arb mamalakatlari bilan taqqoslashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Komil inson, barkamol shaxs, g'arb davlatlari, rivojlanish, gumanitar fanlar, uyg'onish davri, tasavvuf, diniy qarashlar, demokratik g'oyalar.

Kirish. Komil inson haqidagi g'oyalar, ta'limotlar va falsafiy qarashlar qadimdan mavjud bo'lib, insoniyat tarixining barcha bosqichlarida uning kamoloti, baxti va qadr-qimmatiga e'tibor qaratilgan. Har bir davr va fan insonni o'rganish markazida turgan. Insonni ulug'lash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, yovuzlikdan saqlash Sharq va G'arb mutafakkirlarining asosiy maqsadi bo'lgan.

Turkiy xalqlarda "komil inson" tushunchasi "barkamol inson", "fozil inson", "oqil inson" kabi nomlarda ifodalangan. Har bir davrda komillikka xos mezonlar mavjud bo'lib, oqillik, saxiylik, botirlik, serg'ayratlik kabi fazilatlar unga o'lchov bo'lgan. Insonning qadri axloqiy mezonlar bilan baholangan, chunki inson koinotdagi eng mukarram mavjudotdir. Shu bois turkiy mutafakkirlar inson fazilatlarini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratganlar.

Komil inson tushunchasining tarixiy rivoji quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

Antik davr (milodiy V asrgacha)

O'rta asrlar (V–XV asrlar)

Uyg'onish va ma'rifatparvarlik davri (XV–XVII asrlar)

Yangi davr (XVIII–XIX asrlar)

Eng yangi davr (XX asrdan hozirgacha)

Sharq va G'arb falsafalarida komil inson masalasi har doim muhim o'rin tutgan. Ularning qarashlaridagi farqlar ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar, jamiyat ongi va hayot tarziga bog'liq bo'lgan. Antik davrlarda bu g'oyalar asosan mifologiya, diniy ta'limotlar va xalq og'zaki ijodida ifodasini topgan.

Antik davr Yunoniston, Rim, Misr, Mesopatamiyada faylasuflarini donishmandlar, hayot murabbiylari deb bilishgan. Ular olam tuzilishi va inson hayoti ma'nosini tushunishga, insonning komillik sifatlarini kashf etishga harakat qilishgan. Masalan, Yunon maktablarida faol fuqarolar, davlat himoyachilari tarbiyalangan. Sportni rivojlantirish va Olimpiya o'yinlariga qiziqirish ham shunga xizmat qilgan. Xotin-qizlar o'rtasida ham turli xil sport musobaqalarining o'tkazilishiga sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish garovi sifatida qaralgan. Bolalikdanoq har bir o'spiringa she'riyat va musiqa muhabbat hissi singdirilgan. Yunonlarda vatanga muhabbat har bir fuqaroning fidoiyligi va jasorati hisoblangan.

Yunoniston davlatlari ichida ta'lim, ayniqsa Afinada rivojlangan. Afinada davlat maktablari bo'lmaganligi tufayli ota-onalar o'z bolalarini pedagogga haq to'lab o'qitishgan. Palestra, ya'ni xususiy gimnastika maktablari mavjud bo'lib, ularda "Yetti erkin san'at" deb nomlangan trivium (grammatika, dialektika, ritorika) va kvadrium (arifmetika, geometriya, musiqa, astronomiya) ni o'z ichiga oluvchi fanlar o'qitilgan. Palestralarda mashhur haykaltaroshlar ishlagan haykallar turgan. Masalan, palestralardan birida Mironning "Diskobol" va Polikletning "Nayzabardor", "Diodumen" degan haykallari o'rnatilgan. Haykal vositasida yigit kishi - kuchli, jismanon baquvvat, vatanini himoya qilishga tayyor bo'lishi kerakligi uqitirilgan.

Barkamol shaxslarni tarbiyalashning asosiy komponenti bo'lgan ta'lim Rimda o'ziga xos bo'lib, faqat

zodagonlarning farzandlari maktablarda ta'lim olganlar. Rim maktablarida yunon tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning ritorikani, ya'ni chiroyli so'zlashni ham o'zlashtirishlari talab etilgan. Antik davr Geraklit, Demokrit, Diogen, Suqrot, Aflotun, Aristotel, Arximed, Epikur kabi faylasuflar ijod qilgan davr hamdir.

Moniylik, mazdakizm, zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylilik, konfutsiylik, daosizm ta'limotlari negizida, shuningdek xalq og'zaki ijodi hisoblanmish – mif, afsona, rivoyat, ertak, doston, qo'shiq, ashula, maqol, matal, topishmoq, intermediya, askiyalarda, ilk yozma yodgorliklardan – O'rxun-enasoy yodgorliklari (Bilga xoqon, Kultigin, To'nyuquq, Kulichur, Moyunchur, Ungin bitiktoshlari) va boshqalarda qadimgi davr Sharqida komil inson haqidagi qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar o'z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda Sharq mamlakatlarida komil inson tushunchasining shakllanishi va tarixiy rivojlanishi falsafiy, axloqiy va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi: Tarixiy metod — komil inson haqidagi g'oyalar, ta'limotlar va falsafiy qarashlarning qadimgi davrlardan to hozirgacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Taqqoslash (qiyosiy) metod — Sharq va G'arb mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlarini solishtirish, o'xshash va farqli jihatlarini ochib berish maqsadida ishlatildi. Tahlil va sintez metodlari — turli manbalar, asarlar va ta'limotlarda ifodalangan komillik g'oyalarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda umumiy xulosalar chiqarish uchun qo'llanildi. Mantiqiy metod — inson kamoloti haqidagi fikrlarning izchilligi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va ularni tizimlashtirishda foydalanildi. Falsafiy–gnoseologik yondashuv — inson mohiyati, axloqiy-ruhiy kamolot va ma'naviy qadriyatlarining bilishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish imkonini berdi.

Komil inson tushunchasi “Avesto” davridayoq umuminsoniy mazmun kasb etgan, insoniyat tarixida birinchi bo'lib, Zardusht insonlarning bugungi dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri hal bo'lajagi to'g'risidagi ta'limotni yuzaga keltirgan.

“Avesto” axloqiy meyorlar, qadriyatlarni ifodalashda ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi doimiy qarama-qarshi kurash mavjudligini ta'kidlaydi. Ezgulik ibtidosi, asoschisi, yaratuvchisi Ahura Mazda, yovuzlik ibtidosi, yaratuvchisi Ahriman o'rtasidagi kurash natijasi insonning ongli ravishda ezgulik tarafida turmog'iga bog'liq. Insonda ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal mushtarak, chambarchas va yaxlit bo'lmog'i lozim, shundagina ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi, degan zardushtiylik g'oyalari komil inson haqidagi qarashlarimizning, shuningdek, milliy ma'naviyatimizning sarchashmalaridan biridir, desak yanglishmaymiz.

Komil inson g'oyasining ildizlari xalq og'zaki ijodida, ayniqsa maqollar va aforizmlarda mujassamdir: “Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar”, “Ilm – aql chirog'i”, “Oltin olma, duo ol”, “Jonningni fido qilsang qil, nomusingni fido qilma” kabi hikmatlar komillik mezonlarini ifodalaydi. Xalq dostonlarida ham bu g'oya o'z aksini topgan. Masalan, “Go'ro'g'li” dostonida bosh qahramon yurt manfaati yo'lida shaxsiy manfaatidan kechib, otni tanlaydi — bu uning mardligi va komil insonligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda Sharq va G'arbda komil inson haqidagi qarashlar yanada rivojlandi. Sharqda IX–XII asrlar ilk Uyg'onish, XIV–XV asrlar esa Temuriylar davrining ikkinchi Uyg'onishi sifatida ajralib turadi. Bu davrda islom dini, tasavvuf ta'limoti va axloq falsafasi yuksaldi.

Komillik g'oyasi Yusuf Xos Hojib (“Qutadg'u bilig”), Ahmad Yugnaki (“Hibbat ul-haqoyiq”), Mahmud Qoshg'ari

(“Devonu lug'otit turk”), Ahmad Yassaviy hikmatlari, shuningdek “Qur'oni Karim”, hadislar va buyuk allomalar — Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Imom G'azzoliy kabi mutafakkirlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu davr Sharq tafakkurida komil insonni ilmiy, axloqli, halol, mard va Vatanga sodiq shaxs sifatida talqin etish bilan ahamiyatlidir.

VIII-IX asrlarda islom doirasida tasavvuf ta'limoti vujudga keldi. O'rta Osiyoda keyinchalik tasavvufning Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya ta'limotlari ayniqsa rivojlandi, ushbu ta'limotlarda insonning komillik darajasiga intilishi uchun mutasavvuflar shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatga insonni komillikka olib boruvchi yo'l sifatida qaradilar. Bundan tashqari Mirzo Bedil, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Rumiy, Lutfiy, Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro va boshqalar ham o'rta asrlar Sharqida komil inson va barkamol shaxs g'oyalarini o'z asarlari va she'rlarida targ'ib etdilar. Ushbu buyuk allomalarning ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy meroslariga nazar tashlasak, ma'naviy barkamol insonlar, ularning xislatlari, fazilatlar haqida butun bir axloqiy talablar majmuasi bo'lmish Sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqarganliklarini guvohi bo'lamiz. Ushbu fikrlardan kelib chiqib ba'zi misollar keltirishni joiz deb topdik.

Atoqli olim N.Komilov komil inson haqidagi tasavvuf ta'limoti mohiyati ustida fikr yuritib, shunday yozadi: “Komil inson, shunday qilib odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi, u g'oyo Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat”.

Xoja Muhammad Porso insonning mukarram va mukammal mavjudod ekanligi nuqtai nazaridan, Ibn Arabiyning komil inson xususidagi g'oyasini inkor etmasdan, uni o'z qarashlari va davrining muhim xususiyatlaridan kelib chiqib ta'rifiyladi. Uning fikricha, “komil inson, ilmiy, hikmatni tanuvchi, ma'rifatdan xabardor, adolat va iffat kabi fazilatlarini o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak. Chunki, Haq ma'rifati, hikmat va ilm Uning ajoyibotlari va sir-asrorlari lazzati sharifroqdir. Undan tashqari hayvonotga sheriklik va boshqasi bundan yiroq va maloiklar sifatidir. Har kimki, bu lazzatga yetishsa u komildir. Kimdakim, bu lazzatdan hech ma'no topmasa, u noqisdir”, - deb hisoblaydi.

Komil inson uning asosiy xislat va fazilatlar haqidagi masalalar XII-XIII asrlarda yashagan Fariddiddin Attor, Sulton Vallad, Aziziddin Nasafiy kabi ulug' siymolar asarlarida ham alohida o'rin egallaydi.

Shu boisdan Sharq mutafakkirlari komil inson jamiki insonlarning mukammali, ya'ni odamiylar odamiysi ekanligi haqidagi konsepsiyani ishlab chiqqanlar, insonning kamolot yo'lini ilmiy yoritganlar. Buni buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy ta'limoti timsolida ko'rish mumkin. Insonning yashashdan asl maqsadi zavqli-lazzati, huzur-halovati, baxtli-saodatli umr kechirishdan iboratdir, degan g'oya uning falsafiy ta'limotida ustuvorlik qiladi. Shu bois ul zot “Insonning mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi”, - uqtirgan edi.

Farobiyning ta'kidlashicha, inson, avvalo, baxt-saodatning nima va nimalardan iboratligini bilishi, unga erishuvni o'ziga oliy maqsad qilib olishi, keyin, unga olib boradigan ish, amal va vositalar nimalardan iboratligini bilishi zarur. U insonlar jamoasisiz odamlar baxtli-saodatli bo'lishi mumkin emasligini bundan ming yil osha narida turib bashorat qilgan edi: “Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasisiga

ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnatishdilar, natijada insonlar jamoasi vujudga keldi".

Har bir insonning tug'ma tabiatida, - allomaning fikricha o'zidan boshqa kishilar bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor. Kamolotga erishuvda inson boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashuviga muhtojdir. Mana shu ko'maklashuv va birlashuv jarayonida inson o'zining maqsadiga erishadi, kamolotga yetadi.

Farobiy tasavvuridagi jamiyatning har bir a'zosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil-ma'naviyatli, ma'rifatli insondir. Fozil inson o'z davlatining qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Unda sharqona nazokat, mehr-oqibat mujassamdir.

Komil inson haqida falsafiy g'oyalar Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino ta'limotida ham katta o'rin egallaydi. Uning "Davolash kitobi", "Tib qonunlari kitobi", "Adolat kitobi", "Donishnoma", "Najot", "Salomon va Ibsol" nomli nodir asralarida inson kamolotida ilm asoslarini egallashning, odamlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning, oila ta'lim-tarbiyasining, nafsni pokiza tutishning, ochko'zlik, o'g'rilik, bo'hton, tuhmat, aldamchilik qilmaslikning ahamiyati haqidagi falsafiy masalalar o'z ifodasini topgan.

"Shifo" kitobida aytishicha, kishi boshqalarning ehtiyojini qondirish uchun yashaydi, mehnat qiladi, o'z navbatida boshqalar ham shunday faoliyat ko'rsatadi. Birov ko'chat o'tkazadi, birov oziq-ovqat tayyorlaydi, birov kiyim-kechak, boshqa birov yana boshqa xil, ko'pchilik uchun zarur bo'lgan yumushni bajaradi. Shunday qilib, har bir kishi jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'ladi. Shu tariqa kamolotga erisha boshlaydi.

Ibn Sino to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlashni, halol, pok mehnat qilishni, hammaga insof, adolat bilan muomala qilishni, nafsga berilmaslikni, fozillar bilan suhbatlashishni, kattalarning izzat-huramatlarini bajo keltirishni, chin va samimiy do'stlikni, muhtojlarga yordam berish va in'om ehson etishni unitmaslikni hamma ezguliklarning manbai, haqiqiy insoniylik belgisidir, deb ataydi.

Sharq mutafakkirlari komil inson haqida o'ziga xos axloq kodeksini ishlab chiqish asosida insonparvarlik to'g'risidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojlanishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ularning komil inson haqidagi g'oyalari, o'y-fikrlari hech qachon

rivojlanishdan to'xtagan emas, balki tillardan tillarga ko'chgan, asrlardan asrlarga o'tgan. Ibn Sino va Farobiyning ushbu qarashlari nafaqat falsafiy, balki pedagogik va psixologik ahamiyat ham kasb etgan. Bu haqida keyingi paragraflarda to'liq bayon etilgan.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ta'lim madrasalarda olib borilib, bolalar "Qur'oni Karim" va haftiyakdan saboq olganlar. Ta'limning diniy tarzda olib borilishi jamiyat taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, XI asrda Xorazm Ma'mun akademiyasi, XV asrda Samarqandda Ulug'bek madrasasi (universiteti) da diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. O'rta asrlarda barcha hujjat va kitoblar xattotlar tomonidan yozilgan. XI asrda Xitoyda, XV asrda Yevropada kitob bosish dastgohining kashf etilishi kitoblarning ommaviy tarqalishiga olib keldi. Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlab chiqarish va kitob bosish yuksak darajaga yetdi.

Bu davrda falsafa fani ham yuksaldi. Musulmon Sharqining monizm, mazdakizm, zardushtiylik kabi ta'limotlari Yevropa Uyg'onish davri falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Inson erkin va ijodkor shaxs sifatida talqin etila boshlandi. R. Dekart, B. Spinoza, T. Gobbs, J. Lokk, J. Russo, D. Gyum, I. Kant, G. Gegel, L. Feyerbax kabi mutafakkirlar insonni falsafaning markaziga qo'yish g'oyasini ilgari surdilar.

Yangi davrda Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda milliy uyg'onish va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadidlar komil insonni yangi davr talablariga mos, ma'rifatli, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilganlar. Ismoil G'aspirali, Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi jadidlar milliy matbuot, teatr, maktab va kutubxonalar orqali komil inson tarbiyasiga katta hissa qo'shdilar.

Umuman, yangi davrda inson tafakkuri, ilm-fan, kashfiyot va madaniyat yuksalib, ma'naviy merosimizning durdonalari yaratildi. Bularning barchasi inson aql-zakovatining yuksak namunasi bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Yangilanayotgan O'zbekistonda komil inson tushunchasi yanada teranlashdi va barkamol avlod tushunchasi komil inson tushunchasi bilan hamohang ravishda rivojlana bordi. Komil insonlarga va barkamol avlodga ehtiyoj har bir davrda mavjud bo'lgan. Ushbu davrda ijod qilgan buyuk olimlar, yozuvchi va shoirlar, jumladan faylasuf va pedagoglar, shuningdek psixologlar bu masalada yanada katta e'tibor qaratib kelmoqdalar. Chunki Vatanimiz taraqqiyoti va jamiyatimiz farovonligi komil va fozil insonlarga bog'liq.

Shunday qilib, komil inson haqidagi g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar turkiy davlatlarda bir necha ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan. Demak, barkamol avlod, komil inson haqidagi hozirgi tasavvur va bilimlarimiz o'zining chuqur ma'naviy asoslari va qadimiy tarixiga ega.

ADABIYOTLAR

1. Navoiy A.. Xamsa. T.: "Yangi asr avlodi", 2014. 102-105-B
2. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: "Yozuvchi", 1996, 143-144-B
3. Xoja Muhammad Porso. Tahqiqot. Buxoro. Markaziy AKM Sharq qo'lyozmalari bo'limi. INV/137 raqamli qo'lyozma. 111-B
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 188-B
5. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010. 96-B
6. Abu Ali Ibn Sino. Risolai fil-ishq. "Sharq yulduzi" jurnali, M. Mahmedov va Z. Bahridinovlar tarjimai. 1-B
7. Kaykovus. Qobusnoma. T.: "O'qituvchi", 2011. 181-B
8. Homidov. H. "Avesto fayzlari" T.: 200156-B
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: "Akademnashr", 2016. 92-B